

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul'tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUIJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ХАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОБА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVIVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI".....	51
2	Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUIJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI".....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD


- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

Pardayeva Ozoda Mamayunusovna

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining mustaqil tadqiqotchisi :

PhD, dotsent – pardayeva a@gmail.com

TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707619>

Annotatsiya: Jahonda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hamda xalqaro turizm bozorida raqobat keskinlashib borayotgan sharoitda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hududiy turizm tizimlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Jahon amaliyotida an'anaviy turizm shakllaridan ko'p formatli turistik mahsulotlarga o'tish jarayoni kuzatilmogda. Maqolada muallif turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun va mohiyatiga ilmiy-nazariy yondoshuvlarni ilmiy jihatdan asoslab bergan .

Kalit so'zlar : turizm, turist, xizmat, oila, global , servis, tadbirkorlik, innovatsiya, strategiya, daromad, eksport, omil, innovatsiya, metod, qishloq turizmi, oilaviy biznes, oilaviy korxonona, oilaviy tadbirkorlik .

Аннотация: В условиях углубления процессов глобализации в мире и усиления конкуренции на международном туристическом рынке развитие семейного предпринимательства становится одним из важных факторов, обеспечивающих устойчивое развитие региональных туристических систем. В мировой практике наблюдается процесс перехода от традиционных форм туризма к многоформатным туристическим продуктам. В статье автор научно обосновывает научно-теоретические подходы к раскрытию содержания и сущности понятий семейного предпринимательства в сфере туризма.

Ключевые слова: туризм, турист, услуга, семья, глобализация, сервис, предпринимательство, инновация, стратегия, доход, экспорт, фактор, инновация, метод, сельский туризм, семейный бизнес, семейное предприятие, семейное предпринимательство.

Abstract: In the context of deepening globalization processes worldwide and increasing competition in the international tourism market, the development of family entrepreneurship is becoming one of the key factors ensuring the sustainable development of regional tourism systems. Global practice demonstrates a transition from traditional forms of tourism to multi-format tourism products. In this article, the author provides a scientific substantiation of theoretical approaches to understanding the content and essence of the concepts of family entrepreneurship in the tourism sector.

Key words: tourism, tourist, service, family, globalization, service industry, entrepreneurship, innovation, strategy, income, export, factor, innovation, method, rural tourism, family business, family enterprise, family entrepreneurship.

Kirish : Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish boshqaruvning innovatsion instrumentlarini foydalanish, raqamli platformalar, sun'iy intellekt texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlilini qo'llash, oilaviy tadbirkorliklik xizmatlariga turistik talabning yangi segmentlarini aniqlash hamda turizmni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan oilaviy tadbirkorlik turlarini shakllantirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot obyektining murakkabligi va xilma-xilligi tufayli ushbu muammolarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish jarayoni davom etmoqda. Bunday yondoshuvlar oila iqtisodiy nazariyasini turli yo'nalishlarda rivojlantirishga qaratilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Mahalliy iqtisodchilarimizdan M.Q.Pardayev [1], I.S.Tuxliyev [2], O'.Ya.Ostonovlar [3], hamda xorijlik iqtisodchi mutaxassislardan Chris Cooper[4], Peter F. Drucker[5], Donald Getz[6], Thomas L.Wheelen[7]lar turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mohiyati, xususiyatlari borasida ilmiy-amaliy ahamiyatga molik tadqiqotlar olib borishgan .

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun va mohiyatiga ilmiy-nazariy yondoshuvlar nazariy tahlil qilindi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Oilaviy tadbirkorlikning shakllanishida uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etish muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oilaviy tadbirkorlik - uy xo'jaligi taraqqiyotining ilk shakllanish va rivojlanish bosqichini ifoda etib, unga bo'lgan nazariy qarashlarni shakllantirish uchun muhim metodologik funksiyani o'taydi. Bunday yondoshuvlar zaminida uy xo'jaligi - xo'jalik yuritishning asosiy va ilg'or shakli sifatida uning ishlab chiqarish qobiliyati va funksiyalari hamda iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni tadqiqot objekti sifatida qaraladi [8]. Bunday xo'jaliklar hech qanday yollanma mehnatga asoslanmasligi, tashqi aloqalarni o'rnatishda yopiq va imkoniyatlari cheklangan iste'molchi xo'jalik sifatida qaralgan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda uy xo'jaliklariga nafaqat iste'molchi balki tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik sifatidagi yondoshuvlar inqilobiy ahamiyat kasb etdi. Bu borada G. Bekkerning ishlari[9] katta qiziqish uyg'otadi. Uning asarlarida oilada mehnat taqsimoti uy xo'jaligining ishlab chiqarish funksiyalari, oila daromadlarining taqsimlanishini gender nuqtai nazaridan tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila bozordagi tovar va xizmatlarni faqat iste'molchisi emas, balki ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon etadigan "Yangi uy xo'jaligi nazariyasi" (G. Bekker, Dj. Minser, K. Lankaster) paydo bo'ldi.

Shuningdek, uy xo'jaliklarining resurslarni yetkazib berishdagi rolini o'rganishda Dj.M Keyns[10] tadqiqotlari diqqatga loyiq. Bunda oila xo'jaliklarining daromadlari, iste'mol va jamg'arish xulqi, ularning davlat bilan o'zaro aloqadorligi, xo'jalik yuritishning tez o'zgaruvchan sharoitga moslashishini ilmiy asoslaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududlarida uy xo'jaligida ishlab chiqarish (kasanachilik, hunarmandchilik)ning vujudga kelishi tarixan shakllangan bo'lib, o'rta asrlarning oxiriga to'g'ri keladi. Shu yillarda, Samarqand shahrida 1053 ta oilaviy hunarmandchilik korxonalari mavjud bo'lib, ularning deyarli 65 % to'qimachilik bilan shug'ullanishgan, o'sha davrda transportning asosiy shakli ot-ulov bo'lganligi bois, ehtiyojga muvofiq, korxonalarining 20 % ni egarchilik tashkil etgan .

Ko'rinib turibdiki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari uzoq yillardan buyon iqtisodiy tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Tadqiqot obyektining murakkabligi va xilma-xilligi tufayli ushbu muammolarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish jarayoni davom etmoqda. Bunday yondoshuvlar oila iqtisodiy nazariyasini turli yo'nalishlarda rivojlantirishga qaratilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mohiyatini ochib berishda, uning muayan bir oilaga tegishliligi, oila boshlig'i tomonidan boshqarilishi va uning a'zolari mehnat jarayonini tashkil etishi kabi jihatlari asos qilingan holda

yondoshuvlar va ta’riflarning mualliflari aniqlandi. Mahalliy iqtisodchilarimizdan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, O‘.Ya.Ostonovlar, xorijlik iqtisodchi mutaxasislardan Chris Cooper, Peter F. Drucker, Donald Getz, Thomas L.Wheelenlarning turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning mamun- mohiyati, xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil etildi . Ushbu jarayonning nazariy jihatlarini quyidagi (1-jadval)da keltirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bular quyidagilar:

1-jadval

Turizm sohasida “Oilaviy tadbirkorlik” faoliyati va kategoriyasiga berilgan ta’riflar va yondoshuvlar³⁰


T/r	Mualliflar	Ta’rifi	Izohi
1	O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik” haqidagi qonuni	Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib tva o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir	Mazkur qonun 2012- yil 26- aprelda qabul qilingan, uning tarkibi 7 ta bob va 35 ta moddadan iborat etib belgilangan.
2	Pardayev M.Q.	Oilaviy mulkga asoslangan oila a’zolari ishtirok etadigan tadbirkorlik faoliyai	“Oilaviy korxonalar iqtisodiyoti” monografiyasida oila daromadlarini oshirish va farovonligini ta’minlash masalalari tadqiq etilgan.
3	Chris Cooper	Turizm sohasida oila a’zolarining daromad (foyda) olish uchun o‘z mulkiga asoslangan faoliyat tushuniladi.	“Tourism: Principles and Practice” monografiyasida turizm sohasini keng qamrovda tahlil qiladi va oilaviy tadbirkorlik (family entrepreneurship) bilan bog‘liq bir necha muhim jihatlarni qamrab oladi.
4	Peter F. Drucker	Oilaviy biznesni kichik yoki o‘rta darajadagi turizm tadbirkorligida yangi g‘oyalar va innovatsiyalar tajribasini amaliyotga joriy etishning qulay platformasidir	“Innovation and Entrepreneurship” monografiyasida - oilaviy turizm bizneslari, masalan, qishloq turizmi, agro turizm, kichik mehmonxonalar va gastronomik turlar, tez va moslashuvchan qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi.
5	Donald Getz	Turizm sohasining yo‘nalishlarida oila boshlig‘i tomonidan tashkil etiladigan	“Family Business in Tourism” monografiyasida qishloq, agro, ekologik, xaridor turizm yo‘nalishlarida oilaviy biznesini tashkil etish va

³⁰ Muallif ishlanmsi

		daromad keltiruvchi biznes turi.	rivojlantirish muammolari tahlil etilgan, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni innovatsion hayot sikli zanjirini ishlab chiqqan
6.	Thomas L. Wheelen	Turizm sohasida tadbirkorlikning turi hisoblanadi, tashkiliy faoliyati oila a'zolaridan iborat xususiy ishtirokchilar jamoasidir	“Strategic Management and Business Policy” ilmiy tadqiqot ishida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik (family entrepreneurship in tourism) bilan bog'liq jihatlarni strategik boshqaruv va biznes siyosati nuqtai-nazaridan tushuntirib bergan
7	I.S.Tuxliyev	Tadbirkorlikning turizm sohasida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan turi hisoblanadi .	“Turizm asoslari” o'quv qo'llanmasida oilaviy tadbirkorlik (family entrepreneurship) turizm sohasidagi amaliy va nazariy jihatlar orqali ko'rsatib berilgan . Turizm sohasida oilaviy turizm xususiyatlari va afzalliklari ishlab chiqilgan
8	O'.Ya. Ostonov	Qishloq joylarda turizm sohasida oilaviy mulkka asoslangan, oila a'zolari ishtirok etadigan va kichik biznes shakli asosida ma'lum darajada daromad (foyda) olishni ko'zlab qilinadigan faoliyat tadbirkorlik .	“ Qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish “ nomli monografiyasida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni qishloq joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini tahlil etgan va daromad turlarini aniqlagan

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda oila xo'jaligi iborasi bilan birga uy xo'jaligi, xonadon xo'jaligi kabi tushunchalar qo'llanil-moqda. Oldingi adabiyotlarda asosan uy xo'jaligi tushunchasi qaralgan. Milliy hisoblar tizimida ham “Uy xo'jaligi”, deb yuritiladi. Biroq, mamlakatimizda oila bilan bog'liq tushuncha barcha me'yoriy hujjatlarda ham o'z aksini topdi. Jumladan, oilaviy masalalar “Oila kodeksi” orqali tartibga solinadi. Mamlakatimizda 1998 yilni “Oila yili” deb e'lon qildi va oilalarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Mamlakatimiz Konstitusiyasida maxsus XIV – bob “Oila”ga bag'ishlangan. Shu tufayli turizm sohasida oila xo'jaligi va uning farovonligini oshirish masalalarini tadqiq qilishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Yuqorida keltirilgan jadvalda keltirilganidek ilk bor oila xo'jaligining ta'rifi G.M.Shodiyeva tomonidan ishlab chiqilgan degan xulosalarga kelindi [11]. Shu va shu kabi bir qancha adabiyotlarni tadqiq qilib, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik deganda, turizm sohasining

ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish hamda ma'lum darajada daromad (foйда) olish uchun o'z mulkiga ega bo'lgan turistik xizmat ko'rsatish kabi faoliyatini amalga oshirish hamda foydani oila doirasida o'zlashtirish maqsadida bir-biri bilan er-xotinlik, bola-chaqalik va qarindoshlik munosabatlariga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi", degan takomillashgan ta'rifni ishlab chiqdik. Shu kabi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid nazariyalar o'ziga xos yondoshuvlar asosida bir necha yo'nalishlarda davom etmoqda. Bunday murakkab jarayonlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish endilikda noan'anaviy metodologik konsepsiyalar, masalaga o'zgacha yondoshish tamoyillarini kashf etish zaruratini taqozo etmoqda. Muammolarni bartaraf etishga yangi soha sifatidagi turizm sohasi jarayonlarni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etib, uning metodologik imkoniyatlaridan keng foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Nazariy jihatdan turizmni rivojlantirish tamoyillarini oilaviy tadbirkorlik sohasida qo'llanishi uning rivojiga katta hissa qo'shib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish jarayonining ham samaradorligini, ya'ni, o'zini-o'zi tashkil etish xususiyatiga egaligi to'g'risidagi g'oyalarni isbotlaydi degan to'xtamga keldik. Shunday ekan, turizm, oila va tadbirkorlikning raqamli iqtisodiyot tizimi faoliyatlari bilan tarkibiy qismlarining birlashuvi hamda **"turizm + oila + tadbirkorlik + innovatsion iqtisodiyot"** kategoriyalarini iqtisodiyotning umumiy va xususiy qonunlariga mos kelish tamoyiliga asoslanadi. Iqtisodiy tamoyillariga mos kelish qonuni mohiyatiga ko'ra, yangi faoliyat faoliyat turini natijasini keltirib chiqaradi ($4+1=5$). Ushbu holatga yangicha metodologiya nuqtai-nazardan yondoshiladigan bo'lsak Venn diagrammasi ishtirokidagi quyidagi modelga ega bo'lamiz (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati modelining tuzilishi

Nazariy jihatdan boshqacha aytganda, tadqiqotlarimizning natijalari yuqorida nomlari yuqorida keltirilgan iqtisodiy kategoriya atributlarining alohida faoliyat natijasidan ularning birgalikda, hamjihatlikda ishlashi samarasi yuqori bo'ladi. Bu jarayonda yaxlit tizimning alohida qismlari ham ahamiyatga ega. Sababi, turizm sohasida oila o'z mulkidan unumli foydalanishi orqali ishlab chiqarish yoki tadbirkorlikka yo'l ochishi, davlat ishtirokida kafolatli istiqbolga erishishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish xususiyatlari va usullarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2025-yil 1-avgust holatiga 396 448 ta tadbirkorlik subyektlari (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) faoliyat ko‘rsatmoqda. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha savdo, sanoat, qishloq, o‘rmon va sanoat xo‘jaliklari sohasida tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohaslarida raqamlar nisbatan kam.

Ular iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha quyidagicha:

- savdo sohasida – 150 319 ta;
- sanoat sohasida – 63 049 ta;
- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – 33 668 ta;
- qurilish sohasida – 30 080 ta;
- yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 28 123 ta;
- tashish va saqlash sohasida – 16 521 ta;
- axborot va aloqa sohasida – 9 915 ta;
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida – 9 584 ta;
- turizm sohasida – 27 005 ta.
- boshqa sohalarda – 28 184 ta[12].

2-jadval

2011 – 2025-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik asosida faoliyat yurutuvchi firma,tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari soni [13]

Yillar	Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik asosida faoliyat yurutuvchi firma va soni (birlik)	Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni (birlik)
2011	52	7340
2012	61	8150
2013	70	9700
2014	82	10850
2015	95	12440
2016	110	15200
2017	135	16400
2018	160	17300
2019	179	18240
2020	165	16700
2021	210	19207
2022	285	20201
2023	390	21358
2024	450	22540
2025	515	24300

2-jadval ma’lumotlari tahlilili shuni ko‘rsatadiki yani, 2010–2024-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasidagi oilaviy tadbirkorlik barqaror o‘sinh tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi iqtisodiy liberallasuv, turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, oilaviy mehmon uylarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi hamda ichki turizmning faollashuvi ushbu ko‘rsatkichning keskin oshishiga xizmat qilgan. 2020-yilda pandemiya tufayli qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2021–2024-yillarda sektor yuqori tiklanish sur’atlarini namoyon etgan.

2011–2025-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy makroiqtisodiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan degan xulosani beradi . Yani , 2011–2016-yillarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni nisbatan sekin o‘sgan. Bunga turizm infratuzilmasining cheklanganligi, vizaviy tartiblarning murakkabligi va xususiy sektor uchun imkoniyatlarning yetarli emasligi sabab bo‘lishi mumkin .

2017–2019-yillarda iqtisodiy liberallashtirish va turizmni rivojlantirish bo'yicha islohotlar natijasida oilaviy mehmon uylari, milliy hunarmandchilik, gastronomik xizmatlar va ekoturizm bilan shug'ullanuvchi oilaviy korxonalar soni sezilarli oshdi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli turistik oqim keskin kamaydi va ko'plab oilaviy bizneslar daromadlarining pasayishiga duch keldi. 2021–2025-yillarda ichki va xalqaro turizmning tiklanishi natijasida oilaviy tadbirkorlik yana o'sish bosqichiga o'tdi. Ayniqsa, oilaviy mehmon uylari va xizmat ko'rsatish korxonalari soni ko'paydi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi aholining daromadlarini oshirdi va turizm xizmatlariga talabni kuchaytirdi. YaIM o'sishi oilaviy biznes uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratdi. Real daromadlarning oshishi ichki turizm rivojlanishiga xizmat qildi. Natijada oilaviy mehmon uylari, milliy taomlar tayyorlash va ekskursiya xizmatlariga talab ortdi. 2011–2025-yillarda O'zbekistonda turizm sohasidagi oilaviy tadbirkorlik soni umumiy hisobda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Ayniqsa 2017-yildan 174eying turizmni liberallashtirish siyosati ushbu sektor rivojlanishining asosiy omiliga aylandi. YaIM o'sishi, investitsiyalar, aholi daromadlari va turizm infratuzilmasining kengayishi oilaviy tadbirkorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, pandemiya va inflyatsiya kabi omillar vaqtinchalik salbiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, turizm sohasidagi oilaviy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi.

Xulosa : Xulosa sifatida aytganda, oilaviy tadbirkorlik iqtisodiyotga asoslangan turizm strategiyalarini ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning turistik salohiyati geografik diversifikatsiyani talab qiladi. Shunday qilib, tarixiy shaharlarda madaniy-eko turizm, tog'li hududlarda ekoturizm va agroturizm, cho'l mintaqalarida esa ekologik turizm yo'nalishlarini rivojlantirish zamon talabiga mos strategiya hisoblanadi. Bunday yondashuv turizm rivojlanishini hududiy o'ziga xoslik bilan uyg'unlashtirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga ekologik xavfsiz turizm xizmatlarini yo'lga qo'yish, Nurota, Zamin, Boysun kabi tabiiy maskanlarda ekoturistik marshrutlarni yaratish hamda Orolbo'yi mintaqasida ekologik barqaror turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qudratov G'.H., Pardayev M.Q., Xudoyberdiyev U.X., Pardayeva O.M. Oilaviy korxonalar iqtisodiyoti. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2012. – 232 b.,
2. I.S. Tuxliyev. Turizm asoslari. 2010-y. O'quv qo'llanma, 2010-y. SamISI.
3. O'.Ya. Ostonov. Qishloq turizmni rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish “ nomli monografiya. SamISI. 2023-y.
4. <https://www.scribd.com/document/826905436/Tourism-Principles-and-Practice-Cooper-Fletcher-Gilbert-Fyall-Wanhill>)
5. <https://www.amazon.com/Innovation-Entrepreneurship-Peter-F-Drucker/dp/0060851139>
6. <https://www.amazon.com/Family-Business-Tourism-Hospitality-Cabi/dp/0851998089>
7. https://books.google.co.uz/books/about/Strategic_Management_and_Business_Policy.html?id=CmouAAAAQBAJ&redir_esc=y
8. Смит А. Исследование о прероде и причинах богатств народов. - М.: Соц. экгиз, 1962, - С. 332.; Зверева Н. А. В. Чаянов о размере семьи и крестьянского домохозяйства. // Вестник статистики. 1991, № 7, с 47.; Маршалл, А. Принципы экономическое науки / А. Маршалл. – М.: Прогресс Универс. В 3-х томах. – 1993. – Т.2. – 594 с.; Самуэльсон П. Экономика / П. Самуэльсон. - М., 1992. - Т. 1. - 740 с.
9. Беккер. Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории / Беккер: пер. с англ./Сост., науч. ред. послесл. Р. И. Капелюшкинов; предисл. М.И. Левин.- М.: ГУ ВШЭ, 2003.-672 с.
10. Кейнс Дж. Общая теория занятости процента и денег. - М.: Прогресс. 1948, - С. 238-240.

- 11.Шодиева Г.М. Оила хўжалиги фаровонлигини оширишда ташкилий-иқтисодий омилларни ва сервисни ривожлантириш муаммолари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Самарқанд, 2008. – 42 б., Шодиева Г.М. Оила хўжалиги фаровонлигини ошириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. – Монография, Т.: Фан, 2006. – 243 б., Ушбу таъриф “Ҳаёт китоби: Ёш оилалар учун энциклопедик қўлланма”да (Т.: “Шарқ” 2011. – 202 б.) қўчириб босилган.
- 12.О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi
- 13.О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.(2026-yil 06.06. soat 10:35.)

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].